


## **ABU ALI IBN SINO HAQIDA**

**Afsonalar rivoyatlar  
hikoyalar.**



## UZUK

Abu Ali ibn Sino yangi tug'ilgan kezlari onasi uni chumiltirayotganida qimmatbaxo uzugini yuqotib so'ygan ekan. U uzugini ko'p qidiribdi, lekin xech qayerdan topolmabdi. Keyin uni kapizak olgan deb gumop qilib, bechora kanizakni rosa kaltaklashibdi. Kapizakni urishayotganda Abu Ali yeglay boshlabdi, kaltaklashdan tuxtashsa chakalok, xam yig'idan tuxtabdi. Hamma bunga ajablanib, uzukni yoqolganga chiqarishibdi.

Ibn Sino tilga kirgapida, birinchi aytgan gapi shu bo'libdi:

— Sizlar o'sha vaqtda kanizakni nohaq urgan edinglar, onam meni chumiltirayotgapida uzugi tog'oraga tushib ketgan edi, u togorani ag'darganida uzuk ham suv bilav birga kir uraga tushib ketdi. Mening tilim chiqmaganidan, sizlarga aytolmagap edim. Kapizakni urgapinglarda yig'lab, tuxtaganlarizda yig'ini bas qilganimning sababi shu edi.

Shundap keyin o'rani kavlashgan ekan, uzuk topilibdi. Bu voqeani eshitgan, bilganlar Ibn Sino zehniga qoyil qolishgan ekan.



## **AFTINI BURISHTIRIBDI**

Abu Ali ibn Sino bir yasharligida uni ko'tarib yurishgap ekan, u maktabdagi bolalarning shov-shuvini eshitib qolib, o'sha tomonga talpinibdi. Kanizak go'dakning rayini, qaytarmay maktabga olib kiribdi. Domla go'dakning gapga diqqat bilan quloq solayotganpni payqab, hanratda qolibdi. Shogirdlari buning sababini so'raganda, u: «Shu go'dak juda xam aqlli kishi bo'ladi, hozir ham o'qiyotgan darslaringni tushunib turibdi», deb javob beribdi. Shogirdlar domlaning ustidan rosa mazax qilib kulishibdi. Shunda domla Abu Ali Ibn Sinoni o'z yoniga o'tkizib, bir shogirdiga ilmiy gaplardan gapirmasdan, og'ziga kelgan narsalarni vaysayverishni buyuribdi. Shogird domlaning buyrug'ini bajarib, bekorchi gaplarni javray boshlagan ekan, Ibn Sino aftini burishtirib, shogirdga nafrat bilan qarabdi. Keyin domla shogirdiga ilmga xos narsalardan gapirishni tayinlabdi. Shundan keyingina Ibn Sino chehrasini ochib o'tiribdi.

Shogirdlar go'dakning xatti-harakatini shu tariqa bir necha bor sinab ko'rishgach, yanglishganlarini tushunitib, ustozlaridan kechirim so'rashibdi. Shundan keyin Ibp Sino ulg'aygach, o'sha domla uni o'z tarbiyasiga olib, unga ilm o'rgata boshlagan ekan.

## **TO'R TUTILGAN OSMON**

Abu Ali ibn Sino chaqaloqligidan o'sib tilga kirgach, yon-veridagilarga:

— Men tug'ilgan kuni osmon yuziga to'r tutib olgan edi,— derkan,— lekin undan keyin osmonga to'r tutilganini ko'rmaganman.

Shunda odamlar buni eshitib, onasi Sitorobonuga aytishgan ekan, u kulib shunday debdi:

— Rost, bolam tug'ilgan paytda uyda hech kim yo'q edi, u hovlida tug'ilgandi. Shuning uchun uni o'radimu, tag'in daraxtdan biror narsa tushib ketmasin deb ustiga g'alvirni yopib qo'ygan edim, bolam jussasi kichik bo'lganidan g'alvir tagiga jo bo'lgan edi.

Buni eshitganlar Abu Ali xotnasigi qoyil qolishibdi.

## **HAYVONGA QALQON**

Bir vaqt Buxoroda bir Hayvon paydo bo'libdi, Hayvonga ko'zi tushgan odam o'sha zahotiyoq til tortmay o'lar ekan. Uning dastidan juda ko'p kishilar qirilib ketibdi, lekin hech bir kimsa uni daf qilishga yo'l topolmabdi. Nihoyat odamlar Ibn Sinoning oldiga kelib, uni bu falokatdan ogoh qilishibdi. Ibp Sino po'latdan bir qalqon tayyorlashni va unga sayqal berib, oynadek yaltiratishni buyuribdi. Qalqon tayyor bo'lgach, uni o'sha hayvonning oldiga keltirishibdi. Halgi hayvon yaltiroq qalqonda o'z aksini ko'rib, unga tashlanibdi va o'sha zhotiyoq halok bo'libdi. Shu binan xalq falokatdan qutulibdi.

## «HAYRONMAN»

Bir kuni Buxoro amiri Abu Aln ibn Sinoning uyida suhbatlashib o'tirib, uni sinab ko'rmoqchi bo'libdi. U xizmatchilarga Ibp Sino o'tiradigan kursining to'rtta oyog'i tagiga to'rt tanga qo'yib qo'yishni buyuribdi. Xizmatchilar ham amirning aytganini bajo keltirishibdi, Ibn Sino uyga kirib, o'z o'rniga o'tiribdi va hayron bo'lib, hadeb dam shipga, dam pastga qarayveribdi. Shunda amir Abu Ali ibn Sinoga qarab:

— Olimimiz nega buncha hayron qolayaptilar, sababini bilsak,— debdi.

— Hayropman,— deya javob qilibdi Ibn Sino,— yo mening o'rnim sal yuqoriga ko'tarilgan, yo osmon sal pastroqqa tushib, erga yaqinlashganday ko'rinadi. Amir bu gappi eshitib, Ibn Sinoning sezgiriligiga juda qoyil qolgan ekan.

## ILON QAYT QILGAN SUT

Abu Ali ibn Sino har kuni ertalab uyidan chiqayotganida, uning eshigi oldida bemorlar ikki tomonga tizilishib qator o'tirishar ekan. Uydan chiqib ketayotgan vaqtida u bir tomonda o'tirgan kasallarga qarab, ulardan hol-axvol so'rar va: «Siz falon narsa bilan kasalsiz, buning davosi falon narsa», deb o'tib ketar ekan. Uyga qaytayotganida esa ikkinchi tomondagilarga qarab, ularning kasallariga davo bo'ladigan narsani aytib o'tar ekan.

Bir kuni u bir bemorga juda diqqat bilan qarab turibdi-da, unga lom-lum ham demasdan, boshqalardan hol so'ragani o'tib ketibdi. Bu holdan bemor juda xafa bo'lib, hatto hayotdan ham umidini uzibdi. Uynga qaytib kelib: «Men shu kasalimdan o'lar ekanman. Agar o'lmaydigan bo'lganimda edi, Ibn Sino sal e'tibor berib qarardi, u bo'lsa so'rashga ham loyiq ko'rmadi. Endi go'ru kafanimning hozirligini ko'raveringlar»,— debdi.

Shu tariqa bemor o'zining o'lmini kutib yotibdi. Bir vaqt uyning burchagidagi teshikdan bir zaharli ilon chiqib, o'rmalab kelaveribdi. Ilon uyning o'rtasida turgan bir kosa sutga yaqinlashib, sutni o'z domiga tortibdi, bir ozdan keyin ichgan sutini qaytadan kosaga qayt qilib tashlabdi. Buni kuzatib turgan bemor ilon iniga qaytib ketgapdan keyin, o'zicha o'ylab, bari bir o'lar ekanman, tuzalishimdanku hech darak yo'q, kel, shu zaharli sutni ichayda, o'lsam-o'lib qo'ya qolay, degan qarorga kelibdi. So'ngra u sutni simirib ichibdi. Lekin bemor o'lmay, aksincha, tobora tuzala boribdi. Kundan-kunga tuzalib borayotganini sezgan bemor o'zining o'lmaganini, balki sog'lig'ni borgan sari yaxshilanayotganini aytib, e'tiroz bildirish niyatida Abu Ali ibn Sino oldiga boribdi. Ibn Sino uning ahvolini ko'rib, juda hayron qolibdi va bemorga:

— Sen ilon qayt qilgan egulikni qachon va qanday qilib topding? Kasalingning davosi zaharli ilonning qayti edi. Uni topishning iloji bo'lmaganidan u kuni men sening kasaligini ham so'rab o'tirmagan edim,— debdi.

Shupda kasal Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolib, bo'lgan voqeani batafsil gapirib bergan ekan.



### **TARAQ-TURUQ...**

Kunlardan bir kuni Abu Ali ibn Sino Buxoro amiri bilan suhbat qilib o'tirib gap orasida:

— Men sahar vaqtida asar yozish bilan band bo'laman, lekin har kuni ayni shu vaqtda Buxoro boyoqchilarining taraqa-turuqi, shov-shuvi boshlanib, xayolim bo'linib qotadi,— deb noligan ekan.

Shundan keyin amir buyruq chiqarib, bo'yoqchilar tong paytida ishlamandigan bo'lishibdi.

Oradan ancha vaqt o'tgach, Abu Ali ibn Sino amirning oldiga kelib, endi Samarqand bo'yoqchilari mening tinchligimni buzayapti, debdi. Amir tajjublanibdi, olimning Buxoroda turib, Samarqanddagi taraq-turuqni eshitishiga aqli bovar qilmabdi.

Oradan yana ancha vaqt o'tgach, Ibn Sino amirning qoshiga kelib, bugun Samarqanddan hech qanday ovoz eshitilmadi, jimjitlik debdi.

Amir hayron qolib, Samarqandga darhol odam yubortiribdi. Odam borib qarasa, o'sha kuni bo'yoqchilarning boshlig'i vafot qilib, ustaxonalarda ish to'xtagan ekan.

Buni eshitib, amrning Ibn Sinoga yana ham hurmati oshib ketgan ekan.

## MUSHUK TOMIRI

Abu Ali ibn Sino juda ko'p kasallarni uyida qabul qilar ekan. Azbaroyi kasal ko'pligidan, ularni ko'rib ulgurolmas ekan. Shuning uchun u o'zi o'tiradigan qabulxonadan ko'cha tomonga ip tortib kuygan ekan. Kasal kelib, shu ipni ushlasa, Ibn Sino ipning titrashidan uning tomir urishini bilib, kasali nimadan iborat ekanini darhol aytib borar ekan.

Bir kuni allaqansi xotip Ibn Sinoni sinab ko'rmoqchi bo'libdi. U och mushukni ushlab kelib, bir oyog'ni ipga bog'lab qo'yibdi. Abu Ali inni ushlab kurib, hayron bo'libdi. O'ylab turib shunday debdi:

— Bu kasal o'tgan hafta beshta mushuk tuqqan, uning ochlikdan boshqa dardi yo'q. Agar topilsa, beshta sichqon tutib boringlar, juda bo'lmasa ikki tishlam go'sht beringlar, shu bilan sog'ayib ketadi.

Bu gapni eshitib hamma turgan odamlar xotinga qarashibdi. Uning qo'ynida mushuk borligi, bu mushuk chindan ham o'tgan haftada tuqqani ma'lum bo'lgach, kishilar yana besh battar hayron bo'lishibdi. Abu Ali ibn Sino aqlining bu qadar o'tkirligini kishilar qopil qolishibdi. Qaltis hazil qilgani uchup xotin Ibn Sinodan uzr so'rashga majbur bo'libdi.

## SOMON YEGAN

Buyuk tabib Ibn Sinoga jigari kasal bir kishnni borib ko'rishini iltimos qilishibdi. Lenin Ibn Sinoning vaqti ziq bo'lgani uchun oldimga bemorning peshonasini olib kelishni, shunga qarab kasalini belgilab, keyin borib ko'ro'rishimni aytibdi.

Ular Ibn Sino aytganini qilishibdi-yu, olimni bir sinab ko'rmoqchi bo'lishib, sigir peshonasini olib borishibdi.

Ibp Sino idishni qo'liga ola solib:

— Ie, kasalingiz somon yeb qo'yibdi-ku, aytinglar, somondan ko'ra ko'k o't esin, tuzaladi,— deb javob beribdi.

Kelgaplar Ibn Sinoning bu gapidan qattiq izza bo'lishibdi.

## DURBIN

Abu Ali Sino bir kuni Buxoro amrining yozgi qasrida o'tirgan ekan, uning yonida bir narsa turganini ko'rib qolibdi. U amirdan, bu nima, deb so'rab qoladi. Shunda amir Abu Aliga:

— Bu durbin, bir necha chaqirim narida kelayotgan odamni ko'rsa bo'ladigan asbob,— deydi.— Hatto buyoqqa kelayotgan Do'stu dushmanini ham uzoqdan ko'rib bilsa bo'ladi.

Abu Ali uzoqqa bir qaraydi, shu zahoti bir otliq kelayotganini payqaydi va uni amirga aytadi. Amir o'z durbinini bilan qarasa, chindan ham bir otlyaq keyabdi. Abu Ali ko'ziga qoyil qoladi.

— Otining rangi to'riq,— deydi Abu Ali.— U halvo yeb kelayabdi.

Shunda amir unga:

— Uning halvo yeb kelayotganligini qaerdan bilding, men ko'rmayotibman-ku,— deydi.

Shunda Abu Aln Sino amirga qarab:

— Halvo yeyayotganini uning atrofida girdi-kapalak bo'lib yurgan pashshalardan bildim, pashsha xech undan nari ketmay, doim og'iz atrofida aylanib yuribdi,— deydi.

Amir Abu Ali gapiga ishonqiramaydi, bir oz vaqt o'tgach, otlik yetib kelib undan so'rab bilishsa, rostdan ham u holvo yeb kelayotgan ekan, bir necha xira pashshalar to halvosi tugagunga qadar atrofida aylanib tinch qo'maganini va halvoni yeb tugatgach, g'oyib bo'lganini so'zlab beribdi.

Undan so'ng Abu Ali uzoqqa qarab: «Besh chaqirim narida bir kishi qotgan non yeb kelayabdi»,— debdi.

Podshoh o'sha tomonga durbni bilan qarabdi, unga odam ko'rinibdi-yu, lekin non-pon ko'rinmabdi.

Amir Abu Alidan so'rabdi:

— Qotgan non yeyayotganini qaerdan bilding?

— Nonini kuchanib o'rtasidan bo'lgan edi, non ikkiga bo'lindi,—debdi Ibn Sino.

Ko'p o'tmay yo'lovchi yetib kelib so'rashsa, voqea donishmand aytganday ekan.

Shunda amir Abu Alining ko'ziga qoyil qolgan ekan.

## **IBN SINO VA O'LIM DAVOSI**

Abu Ali ibn Sino o'lim davosini ham topgan emish. U o'layotgan vaqtida shogirdlaridan biriga vasiyat qilib, dori tutqazibdi. Dori qirqta idishga solib qo'yilgan ekan.

— Mana shu dorini,— debdi Abu Ali ibn Sino,—men o'lganimdan keyin har birni tartib bilan bittadan tomizasan, bir idishdagisini tomizib bo'lgach boshqasiga o'tasan. Shunday qilib, to qirq idishdagi dorilarning hammasini birin-ketin quyib tugatasan.

Buyuk hakim shogirdiga bu ishni qanday bajo keltirishni ko'rsatibdi.

Ko'p o'tmay, Abu Ali Sino vafot etibdi. Shogird avvaliga ustozni tayinlaganday ish qilibdi, dorini tomizaveribdi. Shogird dori idishlarining o'ttiz to'qizinchisini tomizib bo'libdi. Dori ta'sir qilib badanda o'zgarish paydo bo'libdi. Abu Ali Sinoda qarilik tusi yo'qolib yosharibdi, asta-sekin harakatga kela boshlabdi. Nihoyat jasaddan «Qo'y! «Qo'y» degan sado chiqa boshlabdi. Shogird ustozining qo'li, peshonasini ushlab ko'rsa, badanga chindan ham harorat yugurgan, tomir urishlari bor, lekin sust emish. Ustozni harakatga kelib yana: «Qo'y!» degan so'zni qaytaraveribdi. Qirqinchi idishdagi dorini quyaman deganda, shogird o'ylanib qolibdi:

U Abu Ali Sino kasal yotganida uning pullaridan anchaginasini o'g'irlagan ekan. «Agar ustozni tirilib qolsa,—deb o'ylabdi shogird,— meni pul o'g'irlaganim ma'lum bo'lib sirim ochilib qoladi, shuning uchun yaxshisi shu oxirgi dori tomchini, quymasam, mol-dunyo o'zimga bo'ladi». U shu xayol bilan qirqinchi tomchini quymabdi, yerga to'kib yoboribdi. Shu bilan Abu Ali Sinoning isib harakatga

kelayotgan badani (soviy boshlabdi, bora-bora undan soch qanday ovoz ham chiqmay qolibdi, shu bilan u tirilmay qolgan ekan.

### «MEN HO’KIZMAN...»

Buxorolik bir kishi kasal bo’lib, «Men ho’kizman, meni so’yinglar» deydigani bo’lib qolibdi.

Kasalning qarindosh-urug’lari Abu Ali ibn Sinoga ahvolni tushuntirishibdi. Abu Ali kasalning oldiga qassob bo’lib kelibdi va: «Qani so’yadigan ho’kizinglar!»— deb baqiribdi jo’rttaga. Bemor uning oldiga chonib borib: «So’yiladigan ho’kiz menman»,—debdi.

Abu Ali darrov bemorning qo’l-oyog’ini bog’latibdi, so’ng qo’lidagi pichoqni o’ynatib qarabdi, keyin bemorning biqinidan ushlab ko’ribdi-da:

— Ho’kizimiz semiz demabmidilaring, bu juda oriq-ku, buni men hozir so’ymayman, sal semirsin, keyin so’yaman,— debdi.

Bemor bu gapni eshitib: «Qani menga ovqat beringlar, men semiray»,— deb ovqat talab qilaveribdi.

Abu Ali ibn Sino bemorning oilasiga dori qoldirib, uni ovqatga qo’shib



bemorga berishni uqtiribdi. Uydagilar shunday qilishibdi, natijada bemor ha-demay tuzalib ketibdi. Keyinchalik Abu Ali ibn Sino bemorning uyiga kelib:



— Semirgan ho'kizinglar qani, so'yib beray,— debdi va sog'aygan bemorga ko'zi tushib:

— E, ancha semiribsan-ku, endi seni so'ysa bo'ladi,— debdi.

Bemor tabibning gapidan juda tajjublanibdi va:

— Meni so'yadiganning boshi o'nta, te-gib, ko'rchi menga,— deya do'q uribdi.

Yig'ilgan qarindosh-urug'larning hammasi avvalgi voqeani eslab, xoxolab kulib yuborishibdi.

## YIGIT KASALI

Kunlardan bir kun allaqaysi ulug' kishining o'g'li qattiq kasal bo'lib qolgan ekan. Otasi yaqin-yiroqinroqdagi tabiblarga qaratsa ham foyda bo'lmabdi, mamlakatdagi tabiblarning hech biri ham kasalga davo topolmabdi. Davo topish u-yoqda tursin, yigitning kasalini aniqlay ham olishmabdi. Kunlar, haftalar o'tgan sari yigitning kasali og'irlashaveribdi. Hatto qarindosh-urug'lar ham yigitning sog'ayishiga ko'zlari etmay, undan umid uza boshlashibdi.

Bir kuni yigitning otasi, Buxoroda Abu Ali ibn Sino degan katta tabib chiqibdi, degan xabarni eshtib qolibdi. Tanish-bilishlar ham unga, o'g'lingni Buxorodagi o'sha zo'r tabibga ko'rsat, o'g'lingni faqat o'shagina tuzata oladi, agar u ham tuzata olmasa, o'g'ling tuzalmas baloga uchragan bo'lib chiqadi, ovora bo'lishga hojat qolmaydi, deyishibdi.

Ota darhol Buxoroga borib, Ibn Sino huzuriga kiribdi. Ibn Sino darhol bemorning tomirini ushlab ko'ribdi, keyin yigitning rangiga nazar solibdi. Diqqat bilan qarab, yigitning oshiq ekanligini payqab olibdi. Lekin bu haqda na otaga, va yigitning o'ziga hech narsa demabdi. Agar aytsa, yigit uyalganidan o'z sirini yashirgan bo'lar va oqibat yaxshilik bilan tugamas edi. Shuning uchun Ibn Sino bemorning otasiga:

— Taqsirim, siz yonveringizda yashaydigan bir bilimdon, kishini aytdirib kelsangiz. U kishi tabiatan juda dilkash va shirin so'z bo'lsin. Men u bilan har xil voqealardan suhbatlashib o'tiraman, o'g'lingiz shu bilan shifo topadi,— debdi.

Ota tezlik bilan qishloqqa borib yonveri qo'shinlaridan shunday bir bilimdon, quvnoq kishni topdirib kelibdi. Abu Ali ibn Sino bolaning tomirini ushlab turib, bilimdon kishidan turli shaharlar ta'rifini so'rabdi. Gap Koson degan joyga kelganda, bolaning tomiri tezroq ura boshlabdi. Bundan Ibn Sino bolaning sevgani kosonlik qiz ekanini payqabdi. Keyin Ibn Sino haligi kishidan Koson mahallalari va ko'chalarinnng nomlarini so'rabdi. Bilimdon kishi qiz turadigan mahalla — Arabxonani tilga olgannda yigatning tomiri qattiqroq ura boshlabdi — Abu Ali ibn Sino uning sevgan qizi shu mahallada yashashini sezibdi. So'ngra Ibn Sino bilimdon kishidan o'sha

mahallada yashaydigan odamlarning nomini so'rabdi. Gal qizning oilasiga kelganda bemorning tomri yana ham qattiqroq ura boshlabdi. Ibn Sino qizning shu oiladan ekanligini payqabdi, bilimdon kishidan oila a'zolarining nomlarini so'rabdi. Haligi kishi qizining nomini aytgan zamovoq yigitning tomri shunday tez ura boshlabdiki, sal bo'lsa o'lib qolayozibdi.

Ibn Sino yigitning o'sha nomi aytilgan qizni sevib qolganini batamom ishonibdi va uning otasiga:

— Endi Kosonga borib, Arabxonadagin falon kishining falon ismli qiziga o'g'lingizni uylantirib qo'y, shunday qilsang, o'g'ling tezda sog'ayib ketadi,— deb maslahat berindi.

Ota Ibn Sinoning aytgani qilibdi, natijada yigit sog'ayib ketibdi.

## QIBAT

Katta bir mamlakatning podshohi falaj kasalga duchor bo'lib, qo'l-oyog'i ishlamay qolgan ekan. Juda ko'p tabiblar davolashga urinib ko'ribdi, lekin hech biri uni tuzata olmabdi. Podshoh sholga o'xshab qimirlamasdan yotaveryabdi. Hihoyat bir kuni odamlar podshohga, «Buxoroda Abu Ali ibn Sino degan tabib bor ekan, shu tabib sening kasalingni tuzata olar ekan, degan xabar keltirishibdi. Podshoh odam yuborib, Abu Ali ibn Sinoni ettirib kelibdi.

Abu Ali ibn Sino kasalni ko'rib, darhol chora topibdi.

— Tezlik bilan hammom isitilsin, podshohning yakka o'zlari o'sha yerda yotsinlar. Bir chopqir ot hammomning eshigi oldiga bog'lab qo'yilsin atrofda hech kim bo'lmasin. Shunda podshohni tuzatish chorosi topiladi,— debdi u.

Podshohinang tuzalshni daragini eshitgan mulozimlar Ibi Sinoning aytganlarini bir zumda bajo keltirishibdi, hammom isitilib, podshohni u yerga altib qo'yishibdi; egalangan otni hammomning eshigi oldiga keltirib bog'lashibdi. Shundan keyin Abu Ali ibn Sino yoniga tinch osib, hammomga kiribdi. Podshohning yakka o'zi hammomda yotganini ko'rib, to'satdan uni haqorat qila boshlabdi. Keyin qilichini qinidan sug'irib, podshohga o'g'talibdi. Shohning kayfi uchib ketbdi va tabib meni o'ldirib, o'rnimga o'zi podshoh bo'lmoqchi ekan-da, degan xayolga boribdi. Abu Ali podshohni borgan sarts qattiqroq hakorat qila boshlabdi, hatto uni o'ldirish niyatnda hamla qilibdi. Podshoh qichmoqchi bo'lib, o'zni nariroqqa olibdi. Nihoyat, u behush bo'lib yeqilibdi. Abu Ali ibn Sino payt poylab, tashqariga chiqibdi va egarlangap otni minib, ura qochibdi. Shu payt Ibn Siponing qochganini nayqagan shoh jon talvasasida o'ziga kelibdi-yu, darhol yugurib chiqib, mulozimlariga Abu Alini ushlab, kallasasini olib kelinglar, deb buyuribdi. Shoh shunday debdi-yu, o'zidan ketib yiqilibdi.

Mulozimlar Ibn Sinoning ketidan ot choptirib, quvlab borib tutib kelishibdi. Podshoh hushiga kelsa, o'z qo'li bilan o'ldirar, degan xayolda, uning qo'l-oyog'ini boylab qo'yishibdi.

Oradan bir oz vaqt o'tgach, shoh o'ziga kelib, birovning yordamisiz o'rnidan turibdi va Abu Ali ibn Sinoning chinakamiga do'q, hamla qilmaganini payqabdi. Uni o'limga buyurganini eslab, pushaymon qilib turgan ekan, mulozimlar qo'l-oyog'i bog'langan Ibn Sinoni olib kirib qolishibdi. Buni ko'rgan podshoh juda ham sevinib ketibdi. Abu Ali ibn Sinodan nojo'ya buyrug'i uchun uzr so'rabdi va chekkan aziyati dilidan ko'tarilguncha saroyda qolishini iltimos qilibdi.

Shunda Abu Ali podshohga qarab:

— Ikkimizning oramizda bo'lib o'tgan bu voqea darvesh bilan ajdaho voqeasiga o'xshaydi,— debdi.

— U qanday voqea ekan,—so'rabdi shoh. Unga javoban Abu Ali ibn Sino quyidagi voqeani gapirib beribdi.

Bir kambag'al kishi bo'lar ekan, kunlardan bir kun g'orda yotgan ajdahoni ko'rib qolibdi. Kambag'alning badaini titroq bosibdi. Ajdaho ko'ribdi-yu, yo'q bo'lib qolibdi. «Demak, bu yerda xazina bo'lsa kerak», o'ylabdi u. Kambag'al ajdahoning sut ichishini eshitgan ekan. Shuning uchun u bir tog'ora sut keltirib, gorning og'ziga qo'yibdi, o'zi esa bir chetda kuzatib turibdi. Bir oz o'tgach, ajdaho inidan chiqib, sutni damiga tortibdi, so'ngra g'orga kirib ketib, yana qaytib chiqibdi va og'zida bir narsa keltirib tog'orachaning ichiga tashlabdi. Kambag'al borib qarasa, tog'ora ichida tilla yotgan emish, bechora juda xursand bo'lib ketibdi. Ertasiga ham sut keltirib qo'yibdi, ajdaho yana tilla olib chiqib tashlabdi. Shunday qilib, u har kuni tog'orada sut keltirib qo'yadigan bo'libdi, ajdaho esa buning evaziga har gal tilla chiqarib beraveribdi. Shu tartiq kambag'al boyib ketibdi.

Kambag'alning bir noqobil o'gli bor ekan. Shu o'g'li otasidan bu qadar tez boyishning sababni so'rabdi. Ota: «Bularning hammasi seniki, shuning uchun buning sababini so'ramay ko'ya qol», debdi.

Lekin yigit so'ray berib, so'ray berib otasi sirini ochishga majbur qilibdi.

— Aytmasangiz,— debdi o'g'li,— podshohga borib sharmanda qilaman. Ota qo'rqqanidan voqeani so'zyab beribdi. Shunda o'g'li:

— Ey, ota, bu ishni menga topshiring, — debdi.

Ota avvalita rozi bo'lmabdi, lekin o'g'li o'z aytganida turib olibdi-da, otasining ko'ndiribdi.

Yigit qorning oldiga tog'orada sut olib kelib qo'yibdi va qilich yalag'ochlab, narvroyaka borib bekinib turibdi.

Ajdaho g'ordan chiqib, tog'oradagi sutni domiga tortibdi, u hayrilib iniga kirib ketayotganida, yigit unga qilich solibdi. Qilich ajdahoning dumiga tegib, bir ozgina

shikast etkazibdi. G'azabga kelganda ajdaho inidan qaytib chiqib, yigitga zahrni sohib o'ldiribdi.

O'g'lining hayallab qolganidan xavotir olgan ota g'or oldiga kelib jo'gargo'shasining kesilgan ajdaho dumi oldida o'lib yotganni ko'rdbdi, ota ayb o'g'lida ekanini tushunibdi va g'orning og'ziga borib, ajdahoga yolvoribdi:

— Ey, do'stim, aqlsiz o'g'lim senga ancha aziyat etkazibdi, lekin o'zi ham tavbasiga tayanib, jazosini tortibdi. Bo'lgan ish bo'ldi, ikkimiz yana aloqamizni yaxishlaylik.

Unga javoban g'ordan shunday ovoz chiqibdi: —  
O'rtamizda endi do'stlik bo'lishi mumkin emas. Sen meni ko'rganingda o'lgan o'g'lining esinga tushadi, men seni ko'rgayanimda esimga kesilgan dumim tushadi. Bu oramizdagi dushmanlikni kuchaytiradi. Endi do'stlik eshigini yopildi.

Chol harchand yolvorsa ham, g'ordan boshqa sado chiqmabdi.

— Shunga o'xshab,— debdi Ibn Sino podshohga,— men bu yerda qolgam, meni har ko'rganingizda sizni haqorat qiganim, g'azabingiz kelaveradi, men esa sizni ko'rganimda yaxshiligim uchun tortgan aziyatim esimga tushib, xafagarchiligim oshadi. Shuning uchun yaxshyasi, menga ijozat bering, uyimga ketay.

Bu gapga podshoh tan beribdi va Abu Ali ibn Sinoga katta izzatu ikrom, sovg'a-yu salom bilan yurtiga jo'natibdi.

### **«KECH QOLIBSIZ...»**

Bir kishi farzandni qapday tarbiyalash kerakligini bilmoqchi bo'lib, maslahat olgani Abu Ali Sino oldiga kelib:

— Farzandimizning tarbiyasi haqida maslahat so'rab kelgan edik,— debdi.

— Bolangiz yoshi?— deb so'rabdi Ibn Sino.

— Uch yashar, tili chiqqan,— debdi haligi kishi.

— Kech qolibsiz,— debdi Ibn Sino,— siz bu ishni uch yil ilgariroq boshlashingiz kerak edi.

### **BIR KO'RISHDA**

Abu Ali Sino xotirasi zo'r bo'lgan ekan. U barcha kitoblarni bir marta o'qir ekan, ikkinchi bor o'qimas ekan. Hikoya qilishlariga qaraganda, Abu Ali bir narsaga bir qarasa bo'ldi, unga ikkinchi bir nazar tashlashga zarurat qolmas ekan. Bir gal Hamadonga kelayotganpda yo'lda musofirxonaga qo'ngan ekan, bir olimni ko'ribdi. U bir kitob yozib evaziga mukofot olish umidida uni hamadon amiriga taqdim qilish uchun olib ketayotgan ekan. Eshitishiga qaraganda, hamadon amiri ilm, san'atning qadriga etadigan va bu soxalar ahliy taqdirlaydigan shaxs ekan.

Abu Ali Sino kitobni bir ko'rib berish uchun so'rab olibdi. U kitobni bergisi kelmabdi, siz tushunmaysiz, mayli varaqlab ko'ring, debdi. Shayx Abu Ali Sino uni olib varaqlashga tushibdi, nihoyat olim so'nggi varaqni ko'rib bo'lgach, muallif: «Bo'ldi, yo'lga otlanishim kerak»,— deb, bahona bilan kitobini qaytarib so'rab olibdi.

Abu Ali Sino uning kitobni qaytarib beribdi. Oradan ikki kun o'tgach, Ibn Sino hamadon amiri huzurida o'tirsa, haligi olim amir dargohiga kirib kitobini unga taqdim qilibdi. Shupda amir Abu Aliga murojat qilib:

— Qani Shayxim, bu kitob qadrini belgilab beringchi, taqdirlasa bo'ladimi-yo'qmi?— debdi.

Abu Ali Sino kitobni qo'liga olibdi-yu, sal-pal varaqlab ko'rgan bo'libdi. Shayx kiyimlarini o'zgartirgani sababli haligi olim uni tanimabdi.

— Bu kitob, amirim, ancha asr ilgarn ta'lif bo'lgan asar, bu kishi uni ko'chirib olib, o'ziniki deb keltiribdi, men buni yoshligimda Buxoroda mutolaa qilganman,— debdi Shayx.

Olim amir oldida aytilgan bu gapdan cho'chib ketib, o'zi ta'lif qilganiga qasamlar ichibdi.

— Hammavaqt ham qasamlar dalil bo'la olmasligini bilursiz. Mana bo'lmasa ikkalangiz kitobga tikilib turinglar, men yoshligimda, o'qiganimda hotiramda qolgani aytib turaman, sizlar uni kitobga solishtirib turasizlar.

Abu Ali ibi Sino shunday debdi-yu, kitobni boshdan oxirgacha yod o'qishga tushib ketibdi. Kitob tugagach, qo'rqqandan olim dag'-dag' titrab, ranglari oqarib ham ketibdi. U yaqindagina yozib tugatgan kitobini boshqa bir odam shunchalik yodlab aytib berishini hech kutmagan ekan.

Muallif nima qilishini bilmay, indamay kitobini olib, chiqib ketmoqchi bo'lgan ekan, Shayx to'xtatibdi:

— Bir gal kitobni mening qo'limdan olib ketganingiz yetar, endi olib ketolmaysiz,— debdi.

Shanx shunday degach, halgi olim musofirxonada ko'rgan kishisi shu ekanligini payqabdi. U unga bir oz tikilib turibdi-da, birdan:

— Siz Abu Aln ibn Sinosiz,— debdi Shayxga va darhol unga qulluq qilib, qo'lini o'pibdi.— Men siz haqingizda ko'p eshitgan edim, lekin xotirangiz haqida aytilgan gapga hech ishongim kelmas edi. Endi ishondim. Agar bu kitobni o'zim yozmaganimda ham ishonmasdim.

Abu Ali Sino miyg'ida kulib olimga hazil-mutoyiba qilganini aytibdi va bu kitobni taqdirlash kerakligini amirdan so'rabdi.

## **BIROR SO'Z HAM BOSHQACHA EMAS**

Abu Ali Sino olim bo'lib yetishgach, o'lkama-o'lka kezib o'ziga durustroq qo'nim jon qidirib, nihoyat hanadon shaxriga borib qoladi. Shunda u yerdagi fozil kishilar Shayxdan dars berishini iltimos qilishadi. Shunda Abu Ali Sino o'zida «Al-qonun» kitobi yo'qligi, bu yerlarga olib kelishga imkoniyati bo'lmaganini aytadi, So'ngra u qo'shib qo'ydi:

— Modomiki sizlar iltimos qilayabsizlar, men «Al-qonun»dan xotiramda qolganlaridan dars berib turaman, keyin kitob topilib qolsa shogirdlar undan to'la bahramand bo'lishar.

Abu Ali tib ilmidan dars boshlaydi, shogirdlari Shanxning hamma gaplarini yozib olishadi. Shu bilan ular tabobat ilmi — meditsinani o'rgana boshlabdi.

Oradan birmuncha vaqt o'tgach, «Tib qonunlari»ning bir nusxasini Xurosadon topdirib kelishadi. Shunda o'quvchilar o'z daftarlari bilan kitobni solishtirib ko'rishgan ekan, ikkalovi ham bir xil chiqib, undan hech qanday o'zgarish topisha olmabdi, hatto daftar bilan kitobda biror so'z ham boshqacha emas ekan.

Shunda hamma o'quvchi va olimlar Abu Ali Sino xotirasiga qoyil qolishgan ekan.

## **QIRQ BOR QAYTA O'QISH**

Abu Ali ibn Sino falsafa dengiziga sho'ngib, nihoyat, Arastuning «Motafizkka» asarini mutolaa kishga tushadi, lekin xech narsa tushuna olmaydi. Yana boshidan o'qishga tushadi, bunda ham bo'lmaydi. Yana boshqatdan o'qishga tushadi, besh marta o'qiydi, bo'lmaydi, o'ng bor o'qiydi, leken shunda ham tushuna olmaydi, yigirma, hatto qirq bor o'qiydi, bo'lmaydi, tushunalmaganidan juda xafa bo'lib ketadi. Keyin kitobni tokchaga qo'yib, bu kitobdan umidini uzadi.



Kunlardan bir kuni Abu Ali kitobfurushlarning oldiga borib qoladi. U mahallarda har kim rastaga borib kitoblarini dalollarga topshirar, ular sotib, pulini egasiga berar ekan.

Abu Ali har gal ko'chaga chiqqach, kitob bozorlarini tamosho qilib, o'ziga yoqqan ba'zi bir kitoblarni sotib olib yurar ekan, shu paytlarda Buxorodagi kitob rastalaridan o'tib qoladi. Kitob ishqivozi bo'lgan Abu Alini ko'rgan dallol darrov uni yoniga chaqirib bir kitobni ko'rsatadi. Abu Ali kitobning nima mavzuda ekanini bilgach, bosh chayqab:

— Bu kitobni tushunib bo'lmas ekan, qirq marta o'qidim, tushunolmadim,— deydi Abu Ali.

— Ey, sen-ey,— deydi dallol,— qiziq odam ekansan-ku, bu juda yaxshi kitob, buni sotib ol, egasi ham senga o'xshab kitob jinnisi, zaruratdan sotayabdi, puliga muhtoj bo'lganidan, uch dirham bo'lsayam mayli dedi, buni olgin, xursand bo'lasan, menga rahmat ham deysan, bunday kitobni shu mahalgacha men ham ko'rmagandim.

Abu Ali dallol oldida noqulay ahvolda qoldi va kitobni uch dirham berib oldi. Bozordan chiqishi bilan kitobni varoqlay boshladi, shu bilan u uyiga kelganini ham sezmay qoldi. Uyga kela solib yana boshqatdan o'qishga tushdi, qarasa, bu Arastuning xo' o'sha qirq bor o'qib tushunolmagan «Metafizika» kitobiga yozilgan sharq asar ekan. Bu sharqlarni yozgan odam faylasuf Abu Nasr Farobiy ekan.

Abu Ali kitobfurush aytganday xursanad bo'lib ketdi. Arastu kitobini ko'p o'qib, dilida yod bo'lib qolganligi jihatidan sharqlarni o'qishi bilan uni tushundi, o'zida yo'q xursand bo'lib, dunyoga sig'maydiganday bo'lardi. Uyiga kelib, yana

qayta-qayta o'qidi, kitob mahsadlari eshigi ochilganidan ko'p quvonib kambag'allarga sadaqa berdi, bozorga borib, o'sha kitobfurushni topdi, unga minnatdorchilik bildirdi, egasiga eltib berding deb ancha pul berdi. Shunda kitobfurush qilgan ishidan o'zi quvonib:

— Ana, o'g'lim, «Menga rahmat deysan», demabmidim. «Qari bilganini pari bilmas», deydilar, biz ham bir narsani bilib gapiramiz, sal bo'lmasa kitobdan yuz o'giray deganding,— dedi u o'z qilmishi yana pul keltirganidan mamnun bo'lib,— bundan keyin bir narsa desak, sen ham darhol gapimizga kirishing kerak.

Kitobfurush bu gaplari bilan kelajakda bo'ladigan savdoga zamin hozirlamoqchi bo'lardi.

Abu Ali bu voqeani o'z tarjimai holiga qo'shib bitib qo'ydi.

## **YURTMA-YURT KEZISH**

Abu Ali Sino musiqa ilmining bilimdoni bo'lib, uni inson asablariga qay daraja ta'sir qilishini juda yaxshi bilar ekan. Ba'zi ko'ziga uyqu kelmaydigan kasallarni musiqa ovozi bilan allalatib uxlatib davolar ekan. Ko'ziga yosh kelmasdan hasrat qilganlarning ko'zni yoshlatib, yig'latib davolar ekan. Ba'zilar xursand bo'lishdan tuzaladigan bo'lgani uchun bir ohang bilan asablarini qitiqlab, kuldirib, uni badanidagi dardiga foriq qilar ekan. U musiqani shundan usul bilan asablarga ta'sir qilish yo'lini bilar ekan.

Kunlardan bir kuni Abu Ali Sino Buxorodan Xorazm tomonga safar qilgan chog'ida o'sha tomonga ketayotgan karvonga ilashib borayottan ekan. Shunda u o'zining kimligini bildirmay tuyaga minib ketaveribdi. Tuyakashlar bir-biri bilan baqirib-chaqirib gaplashar, ba'zilar o'zlaricha hayqirar, boshqalari ashula aytar, tor chalar, hech jim bo'lishmas ekan. Hatto ular karvonsaronga qo'nishmas, undan ham battar tinchlik bermas ekan.

Abu Ali bularni ko'rib boshi qotibda, xuddi kechgacha temirchilar do'konida o'tirib chiqqanday bo'libdi. U tuyakashlar shovqinidan bir oz bo'lsayam dam olmoqchi, o'ziga orom bermoqchi bo'libdi. Karvon bir bekatga kelib dam olibdi. Tuyakashlar qiy-chuvi, alg'ov-dalg'ov tugab, nihoyat uyquga ketishibdi. Shu payt Abu Ali ibn Sino o'rnidan turib yashircha karvon tuyalari tomon yuribdi. U ohista tuyalarga yaqinlashib bo'yinlariga osib qo'yilgan qo'ng'iroqlarni boshqacha yo'sinda bog'lab qo'yibdi, tilini ham boshqacha osiltiribdi. Tong otib hamma uyqudan uyg'onib, safarga otlanibdi. Tuyakashlar yo'l yurib, tuya qo'ng'iroqlari ta'siri natijasida ko'zlaryaga uyqu kelib, esnash va mudrashga tushishibdi, ular kechgacha mudrashib unqudan ko'z ochishmabdi, bu orda Abu Ali tuyakashlar qiy-chuvidan ancha orom olibdi. Ertasi kechasi tuya qo'ng'iroqlarni bo'yniga boshqacha yo'nalishda osib qo'yibdi, bunda yo'lga tushgan tuyakashlar xuddi birov



qitiqlayotgandek kulishga tushibdi. Tuyakashlar shunday kulshnar ekan-ki, hech o'zlarini to'xtata olishmas ekanlar. Ular shu bilan kulgidan charchashib tinkalari qurib uxlab qolishibdi. Abu Ali Sino bo'lsa shu bilan bir oz orom olibdi. Ular uchinchi kuni kechqurun karvonsaronga yetib kelib uxlashganida Abu Ali tuya qo'ng'iroqlarni yana ham boshqacharoq qilib ilib qo'ygan ekan, ertalab yo'lga tushib tuyakashlar g'amgin ohangni eshitib qayg'ulanishibdi, hech kimning kulishga ham, birovlariga baqirib-chaqirib qiy-chuv qilishga ham hojati qolmabdi. Hammasi halgi tuya bo'ynidagi qo'ng'iroq ovozidan yeg'lashga, ba'zi birlari o'lgan yaqin-yiroqlarini eslab yig'lab-siqdashga, boshqa ba'zilari ho'ngrashga tushishibdi, xullas, hech kim bunda ham to's-to'polon qilmabdi.

Abu Ali bukun ham tinchgina dam olibdi. To'rtinchi kuni manziliga yetishga yaqin qolganda Abu Ali tuya qo'ng'iroqlarni yana boshqacha yo'sinda osayotganida karvon boshi bunga razm solib yurgan ekan, shartta uni ushlab olibdi. Ittifoqo, shu kuni o'sha soatda Xorazm amiri vaziridan bir necha nafar chopar Abu Ali ibi Sinoni kutib olish uchun shu karvonsaronga yetib kelishibdi. Tuyakashlardan so'rashsa, bunday odam yo'q, deyishibdi. Ular hammani bir-bir tanishga tushibdi. Shunda karvonboshi Abu Aliga ishora qilib:

— Oramizda mana bu sehgardan bo'lak hech begona odam yo'q, hammasi o'zimizning tuyakash va savdogarlar,— debdi.

Choparlar Abu Alini tasvirlanganidan tanshibdi, unga vazirdan salom aytishibdi va unga yangi liboslar va ulov keltirishganini aytgan ekan, karvonboshi kim bilan kelayotgapidan endigina xabardor bo'lib peshonasiga bir uribdi, shunday odamni yo'l-yo'lakay tapimabman, deb pushaymon qilibdi.

Tuyakashlar hammasi Abu Ali Sinoni tanishib, shu paytgacha tanishmaganliklariga, e'tiborsizliklari va yo'l-yo'lakay baqirib-chaqirib uni rohatsiz qilganliklari uchun uzr so'rashibdi. Bir zumda Abu Alining izzat-ehtiromi oshib ketibdi.

Odamlar tuya qo'ng'iroqidan ham shunchalik nag'ma chiqargani uchun Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolishibdi.

## NAFSI YOMON

Buxoroda Ostonaqul degan bir mechkay odam bo'lgan ekan. Bu odam ovqatli ko'p yeydigan, juda ham xo'ra bo'lgan ekan. Shuning uchun uning asli oti Hamroqul bo'lsa ham qorin dardida odalmar ostonasiga yopshib olaverganidan uni Ostonaning quli — Ostonaqul deb atasharkan.

Shu kishi bir kuni Abu Alining oldiga kelibdi.

— Qornim og'riyabdi, davosini qilsangiz,— debdi.

— Nima yegan edingiz?— deb so'rabdi Ibn Sino.

— Bir bog'da ulfat yigitlar qo'y so'yib, go'shtini dimlama qilib qo'nishgan ekan, men qo'qqisdan qozon boshiga borib qoldim, men ularni ko'rdim-u, ular meni ko'rishmadi. Men dimlamani qozon-pozoni bilan ko'tardim-u, kishi ko'rmas joyga borib, poqqos tushirdim. Nariroqqa borsam, o'z ulfatlarimga duch kelib qoldim. Ular dasturxonga qazi qo'yib qimiz ichishayotgan ekan, ular bilan o'tirdim. Qimiz ichdim, qazi yedim, lekin qazisi yaxshi pishmagan ekanmi, qattiq ekan, qazini chaynay berib jag'larim og'rib ketdi, uvol bo'lmasin deb bir amallab yutib yuboraverdim. O'zim ham ko'pdan beri qazi yemagan ekanman. «Kafan borida o'lib qol», deganday qazi borida yeb olay debman. Undan keyin sho'rva keldi, undan ham ichdim. U ustidan bir to'yga bordik, u yerda avval hasb yedik, keyin manti yedik, undan keyin palov suzildi, ol-ol, deyishdi, undan ham oldim, keyin uyga kelib xotin qilgan ovqatni yedim.

Abu Ali Sino qog'ozga bir nimalarni yozardi, keyin kasal odamga indamay o'grildi-yu, yozganini uning qo'liga tutqazdi:

Yegan bo'lsang taoming, hazm bo'lmasdan oldin,  
Yana ustiga-ustak yemoqqa yo'q zarurat.  
Chaynashda tishlar ojiz bo'lgan taomni yutma,  
Taomning eng yomoni — bu, qoringa bo'lgay ofat

Mechkay qog'ozni oldi-yu, alanglab unga ko'z yugurtirdi va nima qilishini bilmay Abu Ali Sinoga boqdi.

— Mana shu yozilganlarni ezib iching, shunda tuzalasiz,— dedi Abu Ali.

— Shayxim,— dedi Mechkay,— buni choyga solib ichaymi, sho'rvaga solibmi?

Shayx tutoqib ketdi:

— Tag'in yeyish-ichishdan gapirasiz-a, buning o'zini ichishni aytayotganim yo'q, balki bunda yozilganlarning mag'zini ma'nosini aytmoqchiman. Kimki kelajakda yendigan narsalarni oldinroq yeb olar ekan, o'sha odam kelajak umrini ham yashab olgan bo'ladi, ya'ni ajalidan oldinroq o'ladi.

Mechkay bir qo'li bilan qog'ozni ushlab, boshqasi bilan qornini ushlagancha hang-mang bo'lib serrayib o'rnidan turolmay, g'ujanak bo'lib yotib qoldi.

## OT TEPGAN

Abu Ali Jurjon yurtiga qadam qo'yib, chegaradagi karvonsarovga endi tushganida g'ovur-g'uvur, shovqin-suron ko'tarildi, hamma otxona tomonga odamlar, kimdir yoqasini ushlab «astag'firulloh»ni qayta-qayta o'qirdi.

Abu Ali ham shu tomonga jadalladi. Borib qarasa, bir yigitni ot tepibdi, u yaqinginada begona yurtdan kelgan musofir ekan. Otxonani tozalab kun ko'rib yurar

ekan, bir ayqir ikki orqa oyog'i bilan jag'iga tepgan ekan, hammayog'i qop-qora qonga belanibdi.

Abu Ali ot tepganga yaqinlashganda kimdir uni tashqariga chiqarib boshiga suv quyib yuvayotgan ekan.

Abu Ali darhol kasal oldiga bordi, uning yirtilgan jag'iga tikildi, kimdir - yuziga suv quyaman deb og'ziga quyib yuboribdi, kasal suvni qon aralash yutib yubordi, shunda kimdir suv quyganni jerkib berib:

— Yonboshlat, ichiga qon ketayabdi,— dedi va o'zi uning boshiga to'nini qo'yib chap yonboshiga yotqizib qo'ydi.

Abu Ali shundan payqashicha, bular orasida birorta tabib yo'q ekan, u darhol kasalning boshi tomirini ushlab ko'rdi. Yigitning tomni urishi, nafas olinshdan holati achinarli darajada emas, tuzalib ketishi mumkin. Uning sinchiklab ko'rayotganidan biror yaxshi xabarni aytar degan umidda uni shu ishga qo'ygan karvonsaroy sohibi Shayxdan so'radi:

— Qalay, tuzalib ketadimi?— u bu kishining kimligini bilmasada, qilayotgan xatti-harakatiga qarab, bir narsani bilmasa, buncha dadil bilib harakat qilmasdi, degan xayolda so'radi.

— Toza doka keltiringlar,— dedi u haligi odam yonida turgan o'rta yashar kishiga.

Abu Ali darhol yonidan paxta olib ot tepganning jag'ini yuvishga



kirishdi, bunday qarasa, kasalning tepa jag'idan oltita tishi sinibdi.

Abu Ali yonidan paxta chiqqanini ko'rganlar, hatto haligi saroy sohibi ham yu yigit tabobatdan xabari bor ko'rinadi, degan andishada sal xotirjam bo'lgan bo'ldilar.

— Iliq suv keltiring,— dedi Abu Ali tomoshabin bo'lib turgan bir yosh yigitga.

Yigit karvonsaroyning oshxonasiga yugurib ketdi. Bir zumda bir mis qumg'on bilan qaytib keldi, boshqasi doka ro'mol keltirdi.

Abu Ali dokadan yirtib, kasal yigitning og'zini iliq suv bilan yana yuvdi, uning qayerdandir tiqilib, singan ikki tishini oldi, yonidan qandaydir unga o'xshagan achchiq tosh kukunini oldi-yu, uni yara joylarga sepdi, keyin boshiga yastiq qilib qo'yilgan to'nini to'rt bukib, uni balandroq qilib qo'ydi.

Shunda ham kasal o'ziga kelmagan edi. U bir oz orom olgach, Abu Alining ishorasi bilan zambilga solishib yigitning yotog'iga keltirishdi. Uni o'z o'rniga yotqizgach, Abu Ali xurjunidan bir idish olib, undan qo'lga yog' tomizdi-da, uni avval kasal og'iziga, keyin burniga hidlatdi. So'ng paxtani kuydirib kulini yara joylarga bosib qo'ydi.

— Endi xotirjam bo'linglar, kasal orom olsin, bir kishi bu yerda qolsin, kasal tamshanganda og'ziga suv tomizib turadi, chunki undagi haroratdan og'zi quruqshab qoladi.

Karvonsaroy sohibi Abu Aliga qulliq qildi, keyin qo'shib quydi.

— Xayriyat-ey, siz kelib qoldingiz, og'rimiz yengil bo'ldi, o'zlari qayerdan bo'ladilar, qayoqqa safar qilayaptilar?

Abu Ali o'zini tanishmadi, uning savoliga javoban:

— Otam tabib bo'lgan edi, shunda uncha-muncha yordam bergan edim, o'shanda ko'zim pishib qolgan bo'lsa kerak.

Saroy sohibi Abu Alini izzat-ikrom qilmoqchi bo'lib alohida hujra berdi, yaxshi taomlar tayyorlatib, o'zi ham ba'zida u bilan suhbatlashib taom tanovul qiladigay bo'ldi. Yarim kechaga borib Shayx kasaldan xabar oldi, u hali o'ziga kelmabdi.

— Ertalab o'ziga kelib qoladi,— dedi Shayx kasalga qarab turgan kishiga dalda berib.

Ertasiga tong chog'i bomdod namoziga turganida Abu Ali avval tag'orat olib, keyin kasaldan xabar oldi. Kasal qadam sharpasini eshitib ko'zini edi ochgan ham ekah, Shayx hujraga kirib bordi.

— Qalaysan, jiyan,— dedi Abu Ali ko'zini katta ochib, nima bo'lganini anglay olmay turgan kasalga qarab,— qayerliksan o'zing?

Abu Ali xayolini chalg'itish uchun atay gapni boshqa yoqqa burdi.

— Buxoroning Kosonidanman, mulla Abdusattor Kosoiniyning o'g'liman,— dedi kasal,— lekin nima bo'lganini bilmanman, nega bu kishi mening yonimda yotibdi, shunga hanron bo'lib turibman, negadir darmonim yo'qqa o'xshayabdi, kasal bo'lganim yo'q edi-ku, deb turibman.

— Xudoga shukr qilg'in, hammasi yaxshi bo'lib tugadi,— dedi Abu Ali unga voqeani bayon etmoqchi bo'lib.— Seni ot tepgan edi, tishing sengan, hechqisi yo'q, omon qolding, bosh omon bo'lsa, buyog'i bir gap bo'lar. Bir-ikki kun joyingdan qimirlamay yota turasan. Miyang qalqilgan bo'lsa, o'z o'rniga tushib o'rnashib olsin, buning uchun jim yotish kerak.

Bu gapni eshitib yotgan haligi qoravul yigit va Shayxning baralla ovozi bilan uyg'onib ketdi. U shu taxlitda Abu Ali gapini eshitdi. Shunda bu kishi katta tabibga o'xshaydi, deb o'yladi.

Ana shu voqea sabab bo'ldi-yu, karvon-saroydagilarning hammasi Abu Alining kimligini bilib olishdi...

## TARSAKI

Abu Ali Sino Xorazmga kelganidan bir hafta o'tar-o'tmas birin-ketin bemorlar kelishib, o'z dardlarini izhor qilishibdi. Abu Ali ertalab eshikka chiqsa, bir qancha odamlar uni kutib turgan ekan. Ular ichida ozg'inginadan kelgan bir yigitni uchratibdi. Uning jag'i qinshayib qolgan, ilmog'idan chiqib ketgan ekan.

— Xo'sh, sen nega kelding?— debdya Abu Ali yigitga qarab.— Qani tashqariga chiqchi. Men sendaqa kasalni ko'rmayman.

Jag'i chiqqan dardini tushuntirishga harakat qilgan ekan, hech gapini tushunib bo'lmabdi..

Shunda Shayxning ikki shogirdi uni qo'ldan ushlab tashqariga olib chiqishi bilan Shayx uning engakiga qarab bir tarsaki solgan ekan, jag' asliga tushib qolibdi.

Tarsakidan yigitning xo'rliqi kelib yig'labdi:

— Men sizning oldingizga davolanishga kelsam, siz meni urib o'tiribsiz,— debdi u.

— Tabibning urgani ham davo,— debdi, ko'rsatgani kelgan kasallardan biri.— Qara, bir urib jag'ingni o'rniga tushirib qo'ydi, tiling aylanayabdi, boldirayotgan eding.

Kasal darhol jag'ini ushlab ko'rgan ekan, asliga qaytibdi. Xursandchiligidan yana yig'lab yuboribdi.

— Qo'y,— debdi Shayx.— Yig'lash yigitga yaranshaydi, bundan keyin esnasang, jag'ingni katta ochib yuborma, og'zingni bekitib, jag'ingni ushlab esna.

Shu bilan yigit Shayxga qulliq,qilib o'z minnatdorchiligini bildiribdi.

## AMIR

Abu Ali Sino kasal bo'lib yotgan Buxoro amirini ko'ribdi-yu, unga dori-darmon berib, uch kun o'rnidan qimirlamasdan yotishni buyuribdi. Ertasiga amir sog'lig'idan xabar olgani kelsa, o'rnida yo'q, bog'da aylanib yurgan ekan.

Amirning bog' kezib yurganini ko'rgan Abu Ali Sino updan ranjibdi, amirga hech narsa demabdi-yu, u bilan birga kezib, ohista yo'lni ataylab amir yotog'iga buribdi.

Amir o'rniga kirib yotgach, uning tomirini ushlab ko'ribdi, ko'ziga diqqat qolibdi, yana dori-darmon berib uch kun yotib dam olishni tayinlabdi. Lekin bu gal u ilgari aytganidan qattiqroq qilib gapirgan ekan, amir buni payqab yosh tabibga qarab:

— O'zing yosh tabibsanu, tiling burroya, amirlar bilan gaplashishniyam bilmaysan,— debdi kulib.

— Siz xalqqa amir bo'lsangiz, tabib tan amiridan. Odatda kim buyruqni bajarmasa, amir unga jazo beradi. Rost, siz mamlakat, el-yurt amirisiz, lekin betobligingizda tabibga itoatkorsiz. Aks holda buyruqqa bo'ysunmagan amaldorlar

bilan yurtni idora qila olmaganningdek, tabib ham buyruqqa bo'ysunmagan betoblar ustidan hukm yuritilmaydi,— debdi Ibn Sino.

— Tiling o'tkiru, lekin gaplaringda mantiq bor, juda dadil yigit ekansan. Bo'ldi, amirni yengding, endi amir amirga itoat qiladi,— debdi kulib.

U shunday debdi-yu, Abu Ali Sino anytganlarini bajo keltirishga jazm qilibdi va oradan bir necha kun o'tmay sog'ayib ketibdi.

Har bir yurtda bo'lgan kabi maliku shoh,  
Tabib erur tan amiri — darddan ogoh.

## SHIFOXONA

Abu Ali Sino Buxorodan Xorazmga kelibdi, lekin o'zining kimligini hech kimga bildirmabdi. U to'g'ri Gurganch shahriga kirib kelibdi-yu, dastlab qayerga borishni bilmabdi. Ibn Sino Buxorodalik vaqtida Xorazim amiri har xil shifoxonalar barpo qilgan, birida gunglar, boshqasida garanglar davolanar ekan, deb eshitgan ekan. U avval shu shifoxonalardan biriga borib, u yerda odamlar qandan davolanayotganini ko'rmoqchi va u yerda o'ziga ish topib olmoqchi bo'libdi.

Odamlardan so'rasa, ular allaqaysi mahallaga ishora qilib, o'sha yerda shifoxona bor debdi, u yerga borib yana so'rashga to'g'ri kelibdi. U katta bir bino oldiga kelib qolibdi, uch kishi darvoza oldida o'tirishgan ekan, u shulardan so'ramoqchi bo'lib:

— Shifoxona qayerda?— debdi ular orasidagi keksaroq kishiga qarab.

— A? Nima dedingiz?— debdi halgi kishi Abu Aliga chap qulog'ining orqasiga qo'lni qo'yib.

Abu Ali boshqa so'rab o'tirmabdi, u to'g'ri ichkariga kirib surishtirgan ekan, bu joy rostdan ham Xorazmshoh qurgan garanglar shifoxonasi ekan.

Darvoza oldida o'tirganlar:

— Sizni odam ekan-u, gapini eshitdirib ham so'ramaydi-ya,—deb ajablanib qolishbdi.

Abu Ali bo'lsa darvoza oldida o'tirgan kasalga bir savol berib, «A?» deganining o'zidayoq uning dardini bilib olibdi.

## BIR KUNDA

Abu Ali Sino oldiga og'ir kasal bo'lgan bir boy kelib shunday debdi:

— Har qancha olsangiz ham meni shu bugunoq qarab tuzatib qo'ysangiz.

Abu Ali unga qarab hayron bo'libdi-yu, lekin hech narsa demabdi.

— Nega hech narsa demaysiz?— debdi boy.

— Xudoning oldiga boring!— debdi Abu Ali.

— Bu nima deganingiz?— so'rabdi kasal.

— Gapingizga javob,—debdi Abu Ali.

— Birovoni siz jo'rating-da, bizga kelib bir kunda tuzatib bering, deb dag'dag'a solasizmi. Tabib bemorni asta-sekin tuzatadi-da.

Boy aytgan gapiga xijolat bo'lib Abu Alidan uzr so'rabdi.

## JAVOB

Buni Abu Ali Sino shogirdi Abu Ubayd al-Juzjoniyl hikoya qilib yozib ketgan edi. Voqea aslida bunday:

Sheroz shahari olimlari Abu Ali Sinoning «Mantiqning qisqachasi» degan kitobini o'qib, ko'p masalalarini tushunmabdi. Bu tushuna olganlar orasida Sheroz shahari qozisi ham bo'lgan ekan. Ular bir-biri bilan tortishib, nihoyat bu kitobni yozgan Abu Ali Sinoga xat yozishmoqchi bo'lishibdi. Lekin bular Sheroz shaharida, Abu Ali bo'lsa shu paytda Isfahon degan shaharda yashab turgan ekan. Ora uzoq, ularning boshi qotib turganda:

— E, to'xtanglar,— debdi Sheroz qozisi.— U yerda mantiqshunos Ibrohim Daylamiyning bir do'sti bor, Abulqosim Kirmoniy degan, bir pecha yil burun Sherozda ham bo'lgan edi, suhbatlari shirin, ko'p zakiiy odam. Xatni shu kishiga yo'llayman, u kishi shayx Abu Aliga eltib berishi mumkin, shu bilan javob keladi.

Qozining gaplari o'tirganlarga ma'qul tushdi. Keyin u o'tirib Abulqosimga xat yozdi, yuborayotgan savollarning hammasini shayxga yo'llashi zarurligini hamda u kishidan bu savollarga javob yozdirib olib Sherozga yubortirishini u kishidan iltimos qildi. Shundan so'ng chopar bilan xat va savollar Isfahonga jo'natildi.

Xat Isfahonga yetgach, Abulqosim undan savollarni olganicha to'g'ri shayx Abu Ali huzuriga ravona bo'ldi.

Saraton paytlari edi. Jazirama issiq, hammani o'z tafti bilan jonsarak qilgan oftob bir oz garb tomonga oqqan, asr vaqtiga yaqindashganidan issiq anchagina susaygan edi.

Abulqosim Shayx turgan hujraga kirib keldi. Shayx oldiga qog'oz, yozilganlar sal narida, oqlari o'ng tomonda, o'zi bilan o'zi band bo'lib, allanimalarni yozib o'tirgan ekan.

Abu Ali qo'lidagi qalami uchini dovot idishiga tirab qo'ydi-da, o'rnidan turib Kirmoniy bilan ko'rishdi. Hol-ahvol so'rashilgach, Kirmoniy darhol maqsadni bayon qilib, o'ziga yo'llanilgan xat bilan Abu Aliga yuborilgan savollarni unga tutqazdi.

Shayx dastlab xatni o'qib ko'rdi-da, keyin uni Abulqosimga qaytarib berdi. Abulqosim Kirmoviy uni olib buklab, kissasiga solib oldi. Shayx bo'lsa qog'ozdan yozilgan savollarni avval birma-bir o'qib ko'rdi, shu jarayonda savollar yoyilganicha qoldi, keyin ularni oldiga qo'yib olib, xayol surar, har zamon-har zamonda savollarga qarab-qarab qo'yardi.

Hujraga yig'ilgan shogirdlar o'z holicha bir-biri bilan gaplashib o'tirar, Abulqosim bo'lsa Abu Ali yonida goh Shayxga, goh gaplashib o'tirgan shogirdlarga nazar tashlab, jimgina kuzatardi.

Shunda Abu Ali yonida o'tigan Abulqosimga qarab:

— Bo'pti, birodar javob hozir bo'lsa, darhol yuboraman,— dedi.

— Iltimos, zudroq bo'lsa,— dedp Kirmoniy,— karvondan qolmasa, chopar muntazir.

— Jonim bilan,— dedi Abu Ali. Shuvdan so'ng Abulqosim fotiha o'qib, turib ketdi. Shayx shogirdlariga bir necha to'p oq qog'oz keltirinshi buyurdi.

Shunda shayx shogirdi Abu Ubayd Ab-dulvohid al-Juzjoniylar darhol besh to'p qogoz keltirib, shayx oldiga qo'ydi. Har to'p qog'oz o'n varaqdan iborat.

Bu payt qosh qoraygan, qog'ozdagi xatlarni ham ko'rib bo'lmas edi. Shayxga sham yoqib berishdi, u savollarga yana bir nazar tashladi-da, sharob keltirishni buyurdi. Abu Ubayd darhol sharob keltirdi. Shayx qadahiga undan quyib, Abu Ubayd bilan ukasi Mahmudni yoniga o'tqazdi-da:

— Sharobdan ichinglar,— dedi. U shunday dedi-yu, savollarga javob yozishga tushdi. Shayx o'tirgan joyida jimgina yozar, ahyon-ahyonda bir qultum sharob ichib qo'yar, so'ng yana yozishda davom etardi. Abu Ubayd bilan Mahmud ikki ovi sharob ichib suhbatlashib o'tirishdi, shayx hamon yozar, agar u yozishga tushsa, hech to'xtab dam olmas, nafas rostlamas edi. U shu tariqa javob yozib naqtni yarim kecha qildi. Shayx yonida o'tirgan Abu Ubayd bilan Mahmudning ko'zlari qisilib uyqu elta boshladi. Buni payqagan Abu Ali ularga:

— Endi sizlar uxlab dam olinglar,— dedi va o'zi bo'lsa hamon yozishda davom etardi.

Abu Ubayd bilan Mahmud ikkalasi boshqa-boshqa uy, hujralarda turishar edi. Ular uy-uylariga tarqalishdi. Shayx esa o'z hujrasida qolib sherozlik olimlar savollariga javob yozishga tushdi...

Azon pallasi edi. Abu Ubayd eshigi taqilladi. Ochsa, shayx Abu Ali uni chaqirtirib yuboribdi.

Abu Ubayd hujraga kirib kelsa, Shayx joynamoz ustida o'tirgan ekan. Uning oldida o'sha o'zi keltirib qo'ygan besh to'p qog'ozning hammasi zich yozilgan Shayx yozuvlari bilan to'lgan, javob hozir bo'lgan ekan.

— Mana bularni olgin-da, tartib bilan qo'yib, Abulqosim Kirmoniyga jo'nat,— dedi Abu Ali.— Unga yana aytib qo'l, chopar yo'ldan qolmasin deb savollarga shoshilib javob yozdim, shuning uchun qisqaroq bo'ldi.

Abu Ubayd javobni Abulqosimga keltirganida u Shayxning varaqlarga zichlab bitilgan yozuv, qog'ozlarga qarab, dahshatga tushdi, darhol o'zi o'tirib, sherozliklarga Shayx javobini qay tariqa olganligini batafsil yozdi. Shu bilan ularni Shayx yozgan javob sur'ati haqida xabardor qildi. Keyin xat va javobni Sherozga ketayotgan chopar bilan jo'natib yubordi.

Abu Ubayd bo'lsa, sherozliklar orqali ko'pchilikka ma'lum bo'lgan voqeani tasvirlab bitib, shayx Abu Ali ibn Sino tarjimai holiga tirkab qo'ydi.





### «SIZ TILSHUNOS EMASSIZ...»

Abu Ali ibn Sino hujrasida allanarsani yozib o'tirganda birdan chopar kelib:

— Shayx hazratlari, sizni amir janoblari o'z huzurlariga chorlaydurlar,— dedi.

Shayx darhol qalamini yarmi yozuvli, yarmi oq bo'lgan qog'oz ustiga qo'ydi-da, yozib bo'yagan qog'ozlarini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, kiyina boshladi, u saronga otdanayotganda tashqaridan shogirdi Abu Ubayd Abdulvohid kirib keldi.

Abu Ubayd Abdulvohid al-Juzjoniyy asli Xurosonning Juzjov shahridan, ajoyib tolibi ilm, mehnatkash odam, tinmay kitob mutolaa qiladi. Ilm istab, shaharma-shahar kezib yuradi, Juzjonda Abu Ali bilan uchrashib qoladi.

U Abu Aliga, Abu Ali unga ma'qul tushadi, o'zi ham mutolaasi zo'r, ko'p o'qigan, mehnatsevar, erinmas odam ekan. Bir kechada Abu Alining bir risolasini ikki nusxa qilib ko'chirib chiqibdi. Abu Ali dastxatini esa yo'qolib qolmasin deb belboqqa tugib, ko'zdan bekitib asrab qo'yibdi.

Hali yurtida ekanligidayoq Abu Ali haqida ko'p gap eshitgan ekan. Uning eshitishiga qaraganda Abu Ali kim qaysi mavzuda kitob yozib berishini istasa, o'shanga yozib berar, lekin o'ziga nusxa olib qolmas ekan. Hatto Buxoroda ekanligida qo'shilari iltimosiga ko'ra yigirma jildlik «Hosil va mahsul» degan asar yozibdi-da, o'ziga nusxa ham olib qolmabdi.

Abdulvohid hayron qolibdi: o'z kitobdan o'ziga nusxa olib qolmagan odam ham bo'lar ekanmi-a, nihyat katta-katta kitob yozsa-yu, o'ziga biror nusxa olib qolmasa?!

U buni o'ylab dahshatga tushardi, hatto uni topib, u bilan uchrashmoqchi, hatto suhbatlashmoqchi ham bo'lib yurardi. Surishtirib qarasa, Buxoroda bo'lgan ancha to's-to'polonlardan keyin Ibn Sinoning boshqa o'lkalarga ketib qolgaplarini eshitibdi. Bilsa, u Xorazmga ketibdi. Abdulvohid Ibn Sino bilan uchrashish va uning ilmidan bilishni istab o'sha tomonga o'tlanibdi.

U Juzjonga kelsa, Abu Ali Sinonnig shu yerlarda yurganini bilib qolibdi. Nihoyat surishtirib-surishtirib u kishi bilan diydor ko‘rishdi. Shu bilan ular bir - birlaridan ajralmandigan bo‘lib qoldilar.

— Mana bu yozilganlarni,— dedi Abu Ali chetda turgan qog‘oz uyumini ko‘rsatib,— tartibga tushirib, oqqa ko‘chirgan-da, Bahmanyorga jo‘nat, mana bunisini faqat ko‘chirib qo‘y. Meni amir hazratlari chaqirtiribdi.

U shunday dedi-yu, tashqariga chiqib ketdi.

Asr vaqtida saroyga otlangan Abu Ali xufton bo‘lmasidan hujraga qaytib keldi. U juda parishon, asabiy, nimalarnidir o‘ylar, muloha yuritar, lekin hech narsa demasdi.

U o‘trib nimalarnidir yozar, qayergadir tikilar edi. Hihoyat Abdulvohidga yuzlanib:

— Mana bu risolani karvon bilan Xurosonga jo‘nat, keyin arab tili, lug‘ati haqida yozilgan qanday kitob ko‘rgan bo‘lsang, hammasini yeg‘ib kel,—dedi.

Abdulvohid avvallari ustozlari lug‘at haqida asar yozish niyatida bo‘lsa kerak, shuning uchun bu to‘g‘ridagi kitoblarni so‘rayabdi, deb o‘yladi.

Abu Ali arab tilshunolaridan Ibn al-Amid, as-Sobbiy, as-Sohiblar asarlarini so‘rattirdi, topilganlarini kechasi bilan mutolaa qilib chiqar, nimalarnidir qog‘ozga yozib qo‘yar edi.

Abu Ali o‘sha kuni amir huzuriga borib kelganidan buyon bezovta, betinim mutolaa qilar, juda kam uxlari edi. Abdulvohid hayron, amir bilan bo‘lgan suhbatda so‘z orasida bir gap bo‘lganmi, amir qattiqroq, shayxga botadiganroq qilib gap aytganmi, lekin uning tinchligi yo‘qolgan, chehrasi ochilmaydi, yozishdan ko‘ra ham kitob mutolaasi ko‘p, ba’zida bu to‘g‘rida topilgan kitoblarni qayta-qayta o‘qiydi, har zamon-har zamonda she’r, ba’zida ham yozib qo‘yardi. Bu voqea erta bahorda bo‘lgan bo‘lsa, kech kuzga borganida Shayxning ukasi Mahmud bir gap topib keldi. Asli voqea bunday bo‘lgan ekan.

Emish, o‘sha kuni Abu Alini amir chaqirganida amir huzurida tilshunos Abu Mansur al-Jabbon ham o‘tirgan ekan. Amir bir qancha olimlarni yig‘ib, o‘g‘liga arab tilidan dars olishida nimalardan boshlasa yaxshi bo‘lishi masalasini o‘rtaga tashlabdi. O‘tirganlarning barchasi sukut qilar, hech kim amir huzurida botinib bir so‘z deyishga dadillana olmas edi. Shunda Abu Aliga ham noqulay bo‘libdi, nahotki shundan oddiy masalada hech kim hech narsa demasa, o‘zi ham arab tilini o‘rgangan-ku, uning yo‘l-yo‘rig‘ini, qaysi yo‘l bilan durustroq o‘rganshini biladi-ku. Shunda Abu Ali sukunatni buzib fikr bildiribdi:

— Mana bu yerda muhtaram ustozlar o‘tirishibdi, ular ham fikrlarini aytishar, menimcha, avvalo, bir qancha kalimalarni o‘rgatib, keyin fe‘llar o‘rgatsa, muhovara — so‘zlashishga imkon hosil bo‘ladi. Bola har bir tilda bir oz so‘zlashishga malaka hosil qildimi bo‘ldi, unda til bilishga rag‘bat kuchayadi, borgan sari ko‘proq kalima bilimiga intiladi. Keyin-keyin barcha fe‘llar va ularni turlashga o‘tilsa ham bo‘ladi,—debdi Abu Ali.

Shu payt boyatdan beri og‘ziga tolqon solib o‘tirgan Abu Masur debdi:

— Hazrat Abu Ali, siz hakim va faylasufsiz, juda aqlli odamsiz, lekin tan oling, tilshunos emassiz, lug‘at kitoblarini o‘rqimagansiz. Shu jihatdan olganimizda, sizning

bu xususdagi gaplaringiz bizlarni qoniqtirolmadi. Siz hikmat — falsafangizdan gapiring-u, lekin tiliga aralashmang, til ilmining ham ahli, donosi bor, siymosi bor.

Abu Mansurning bu gaplari Abu Ali ko'kragiga kamondan otidgan nayzadek qaladi. U aytgan gapiga izza bo'ldi, kelganiga pushaymon ham qildi, lekin amir farmonni bilan kelganini eslab, kela olmasligi ham mumkin emasligini o'yladi. Lekin amir Shayxning ilmi, qudrat-zakovatini yaxshi bilardi.

Ibn Sino davrada boshqa gapirmadi, og'iz ochmadi. U har qanday holatda ham ogir bo'lish zarurligini, achchiqni yutish oqibati xayrli bo'lishni bilardi.

Shunda shayx Abu Mansurga bir qaradi-yu, lekin hech nima demadi...

Shu bilan shayx uch yil davomida arab tili, sarfi — gramatikasini o'rgandi. Bu tilda fasohat bilan yozilgan ajoyib asarlarni mutolaa qildi, she'rqasidalarini o'qidi, ulardagi ba'zi qiyin iboralarni yodladi. Bu orada shogirdi ko'p kitob topib keldi, Xurosondan do'stlari bir qancha lug'atshunoslarning asarlarini, tili og'ir deb bilangan adiblar asarlarini yubordi. Shayx ulardagi barcha chiroyli ibora va tashbihlarni o'rgandi.

Ularni ishlatib qasidalar yozdi. Keyin iboralarda yozadiganlar uslubida qissa va risolalar yozdi. Ularni xati xunuk kishi qo'lida ko'chirtirdi. Shu bilan Abu Ali yozgan asarlarni muqovachiga berib, eski jildga muqovalatdi, sirtidan qarasa, bu muqova juda eski bir kitobga o'xshardi. Ko'ngildagiday muqova qilgani uchun muqovachiga ham yaxshi haq to'ladi.

Abu Alini amir juda yaxshi ko'rar, doimo suhbatiga uni chaqirar, ba'zi ishlarda maslahatining qadriga yetar edi. Shunnng uchun amir u bilan ko'p ham suhbat bo'lib, yaqinlik paydo qilgan edi.

Abu Ali Sino amir huzuriga kirib o'sha voqeani eslatdi va unga javob hozirlaganligini aytib, muqovalangan kitobni amirga tutqazdi. Keyin unga dedi: — Sizdan iltimos: Abu Mansurni chaqirib bu kitobni ko'rsating, ovga chiqanimizda shuni topib olgan edik, mazmunini aytib bersangiz, deng. Keyin o'sha majlisda hozir bo'lgan olimlarni ham chaqirsangiz, suhbatda men ham bo'lsam.

Amir Shayx Abu Ali aytganday bir majlis tuzdi, o'sha kuni ahli majlislarni ham yeg'di. Majlis oxirida amir tilshunos Abu Mansurga halgi kitobni tutqazdi.

— Ustodi aziz, mana buni ovloqda topib olgan edik, shuni nima haqdaligini bilolmadik,— dedi.

Abu Mansur kitobni qo'lga oldi, undagi iboralarni tushunish qiyin bo'ldi shekilli, birmuncha xayolga chalinib ovozi chiqmay qoldi. Shunda amir, tilshunosga qarab:

— Ha, qiyin ekanmi, nima?— dedi. U kitob mavzusi haqida so'radi,— nima haqda ekan?

— Ham nasr, ham nazm, ancha qadimgiga o'xshaydi, tili og'ir ekan,— dedi Abu Mansur.

Shunda Abu Ali tilshunosga yaqin keldi va kitob varag'iga ko'z tashlab, unga dedi:

— Shuniyam tushunmayabsizmi, hazrat, bu iboralarning izohi as-Sohibning kitobida juda yaxshilab bayon etilgap-ku. Mana bunisining izohini Ibn al-Amid aytgan, o'qimaganmisiz ularni?

Abu Mansur ancha o'sal bo'ldi. U kitobni ancha varaqlashda davom etib yana tutilib qoldi. Bu gal Abu Ali yana pisanda qildi:

— Nima balo, al-Azhariyning «Tahzib al-lug'a»sini o'qimaganmisiz, bular u yerda batafsil yozilgap-ku,— dedi-da; kimnoyamuz unga qarab qo'ydi.

Abu Mansur battar izza bo'ldi va bu kitobni yaxshi tushuna olmayotganini aytdi.

Yig'ilganlar hammasi bir-biriga qarashar, Abu Mansur holiga rahim kelar, lekin hech kim botinib, kitobni qo'liga olishga jur'at etolmasdi.

Shu payt Abu Mansur o'rnidan turdi, amir va Abu Aliga qulluq qililib:

— Uzr,— dedi u amir va Abu Aliga qarab.— Afv eturlar, uzr,— dedi u Ibn Sinoga qarab,— o'sha kungi fe'limdan o'zim ham shu paytgacha xursand emasdim. Ayb kaminada. Ahloq yuzasidan hukm chiqarsak, mening o'sha atvorim odobsizlik bo'lgan. Undan keyin sizni bunchalik xafa kilganimni ham bilmagandim. Lekin negadir, hamon dilim g'ash edi.

Abu Mansur aql-zakovatli odam edi, u bu holdan bir narsani angladiki, bu risola va qasidalarining hammasini Abu Ali yozganligini tushundi va bu ish Abu Mansurning ho' o'sha kuni Ibn Sinoga qarata aytgan nojo'ya so'zlariga javob ekanligini bildi.

— Men endi sizdan xafa emasman,— dedi Abu Ali.— Shu bahona bilan men o'n jilddan iborat «Lison al-arab» degan asar yozdim,— u shundan dedi-yu, yonginasida belboqqa o'ralgan bir katta muqovalik qo'lyozma kitobni belbog'dan oldi-da amir oldiga qo'ydi.

Hammaning nigohi kitobda edi. Amir kitobni qo'liga olib, uni varaqlashga tushdi. Kitob varaqlari juda zich yozilgan, ahyov-ahyovda varaq yoni — hoshiyalariga tuzatishlar, izohlar yozib qo'yilganidan joyi ham qolmagan ham edi. Amir kitobni varaqlar ekan, oraga battar jimlik cho'kdi, o'tirganlar o'zidan narida varaqlanayotgan kitobni o'qiy olmasalarda, har varaqlanayotganda o'sha tomonga xuddi uzoqdan bo'lsayan, o'qiy odadiganday qarab turishar edi. Abu Mansur bo'lsa, na turishini bildi, na turmasligini, amir ko'magida kitobni ko'rar, oyoqlarida darmon ham qolmagan edi.

## YUTISH

Odam tabiatida bir ishni qilayotganda ba'zan oqibatini o'ylamaslik odati bor. Chunonchi, odam ovqatni yeydi-yu, lekin uning qanday hazm bo'lishini bilmaydi, hatto uni o'nlab o'tirmaydi ham.

Go'yo bu uning ishi emas, balki «qorin» degan boshqa bir «kimsa»ning ishi. Shuning natijasida ba'zi beparvolik bilan qattiq, berch bo'lgan, tishi o'tmagan, maydalab berolmagan chandir etlarni ham yutib yuboradi. U bunday qilayotganida, tish maydalab berolmaganni oshqozon qanday hazm qiladi, degan fikrni xayoliga ham keltirmaydi. Faqat, shuni yesam, menga yaxshi, foyda bo'ladi, deb o'ylaydi. Balki xalq orasida yurgan «qoringa kirsa, qayga ketar», degan gap ham shundan tushunchani bir kur ifodasi xam ahtimol. Nega desangiz, odamlarda og'izga tushgan narsani yutishda taskin topish odati bor.

Ammo alloma Ibn Sino odamlarni, bunday ogoh qiladilar, hakimona nasihat qiladilar.

Bayt:

Hazmi taomdir chaynasng, ko‘p maydalab,  
Muddatni cho‘z, chaynab yegil ko‘p martalab.  
Og‘ir o‘lsa chaynamoqlik gar tish bila,  
Andin og‘ir xazmi aning yutish bila.